



“Yusuf va Zulayho” dostoni variantlarining badiiy va falsafiy tahlili.

Hamrayeva Nafisa

1-bosqich talabasi

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti

Ilmiy rahbar: G'iyosiddin Shodmonov,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent .

Qarshi davlat universiteti, shodmonov786@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Yusuf va Zulayho” dostonining variantlari asosida tahliliy sharhni guvohi bo'lasiz. "Yusuf va Zulayho" dostoni Sharq mumtoz adabiyotining eng go'zal va ma'naviy teran asarlaridan biridir. Bu doston Qur'oni Karimdagi Yusuf surasi asosida yaratilgan bo'lib, unda payg'ambar Yusuf alayhissalomning hayoti, go'zalligi, sabr-toqati, Zulayhoning unga bo'lgan muhabbati va tavba yo'li bilan Allohga qaytishi tasvirlanadi. Asarning asosiy g'oyasi – go'zallik, sabr, sadoqat, gunohdan poklanish va ilohiy muhabbat kabi ruhiy-ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilishdir. Doston Sharq adabiyotida bir necha mashhur adiblar tomonidan turli davrlarda qalamga olingan. Ularning har biri o'ziga xos badiiy yondashuv, diniy-falsafiy tafakkur va estetik did bilan dostonni talqin etgan. Quyida ushbu dostonning eng mashhur variantlariga tahliliy yondashuv beriladi.

Abstract: In this article, you will witness an analytical review based on the variants of the epic poem "Yusuf and Zulaykha". The epic poem "Yusuf and Zulaykha" is one of the most beautiful and spiritually profound works of classical Eastern literature. This epic poem is based on the Surah Yusuf in the Holy Quran, which describes the life, beauty, patience of the prophet Yusuf, Zulaykha's love for him, and his return to Allah through repentance. The main idea of the work is to promote spiritual and moral values such as beauty, patience, loyalty, purification from sin and divine love. The epic was written by several famous writers in Eastern literature at different times. Each of them interpreted the epic with their own artistic approach, religious-philosophical thinking and aesthetic taste. Below is an analytical approach to the most famous variants of this epic.

Аннотация: В этой статье вы станете свидетелями аналитического обзора, основанного на вариантах эпической поэмы «Юсуф и Зулейха». Эпическая поэма «Юсуф и Зулейха» является одним из самых красивых и духовно глубоких произведений классической восточной литературы. Эта эпическая поэма основана на суре «Юсуф» в Священном Коране, в которой описывается жизнь, красота, терпение пророка Юсуфа, любовь к нему Зулейхи и его возвращение к Аллаху через покаяние. Основная идея произведения заключается в пропаганде духовных и нравственных ценностей, таких как красота, терпение, верность, очищение от греха и божественная любовь. Эпос был написан несколькими известными писателями восточной литературы в разное время. Каждый из них интерпретировал эпос со своим собственным художественным подходом, религиозно-философским мышлением и эстетическим вкусом. Ниже представлен аналитический подход к наиболее известным вариантам этого эпоса.

Kalit so'zlar: Go'zallik, taqdir, tush, Zulayho, chaqaloq, sabr, bashorat, bo'ri.

Keywords: Beauty, destiny, dream, Zulaykha, baby, patience, prophecy, wolf.

Ключевые слова: Красота, судьба, мечта, Зулейха, младенец, терпение, пророчество, волк.



¹“Bir asarning turli zamon va makonlardagi talqini xalq tafakkurining necha darajadan o‘tganligini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar — badiiy ruhiyatning aksidir.”

A.Fitrat

“Yusuf va Zulayho”² haqidagi qadimiy afsona va rivoyatlar Sharq xalqlari orasida turli davrlarda yetishib chiqqan ko‘plab ijodkorlar diqqatini o‘ziga jalb etdi. Go‘zal Yusuf haqidagi qissalar genezisi ilohiy-muqaddas kitoblar – Tavrot, Zabur, Injil va Qur‘oni Karim bilan bog‘liq ravishda o‘rganilishi eng maqbul yo‘ldir. Dastlabki uch muqaddas kitob umumiy Bibliya nomi ostida yuritilib, u ikki qismga: Qadimgi Ahd va Yangi Ahdga bo‘linadi. Qadimgi Ahd – Tavrot va Zabur iborat. Yusuf alayhissalomga doir dastlabki ma‘lumotlar Tavrotning “Ibtido” nomli birinchi kitobida uchraydi. Uning 25-bobidan Ya‘qub payg‘ambar haqidagi voqealar boshlanadi. So‘ngra uning uylanishi va ilk farzandlarining dunyoga kelishi voqealari bayon qilinadi. 30-bobining “Yusuf – Rohilaning o‘g‘li” qismida Yusufning tug‘ilishi va unga ism qo‘yilishi haqida qisqacha aytib o‘tilgan, xolos. U haqdagi asosiy voqealar tizmasi kitobning 37-bob “Yusufning ko‘rgan tushlari” qismidan boshlanadi.

Injilda: Yusuf haqidagi tasvirlar va u bilan bog‘liqhodisalarga juda kam o‘rin beriladi. Hech bir joyda batafsil ma‘lumot uchramaydi. Kitobda na Misr hokimi, na Zulayho haqida bir og‘iz gap yo‘q. Uning dastlabki to‘rt kitobchasi Iso Masihning hayoti va ta‘limotiga bag‘ishlangan bo‘lib, ular Matto, Mark, Luka va Yuhanno bayon etgan Muqaddas Xushxabar deb ataladi. Mazkur to‘rt kitobchada Yusuf haqida hech qanday xat-xabar yo‘q. Biroq uning bir necha qismlarida Ya‘qub va Yahudo ismlari qayd etilgan. Iso Masihning muridlariga bag‘ishlangan Injilning “Aziz havoriylar faoliyati” nomli keyingi kitobida Yusufning qul qilib sotilishi, uning Misrda shon-shuhrat topishi va qahatchilik haqida qisqacha hikoya qilinadi.

Tavrotda³: Bu tahlilda Tavrot (ya‘ni yahudiylarning Muqaddas Kitobi – Tanax)dagi Yusuf hikoyasi asl manba, syujet tafsilotlari va asosiy farqlari bilan izohlanadi. Tavrotda Yusuf va Zulayho voqeasi (Bosh kitob: "Payg‘ambarlar tarixi", Ibtido – Yaratilish, 37–50 boblar) Yusuf voqeasi Tavrotda juda batafsil berilgan bo‘lib, Ibtido (Genesis) kitobining 37-bobidan 50-bobigacha bo‘lgan bo‘limlarida bayon qilinadi.

1. Yusufning kelib chiqishi (Ibtido 37-bob) Yusuf ya‘qubning 12 o‘g‘li orasida eng suyuklisi edi. Uni tushlari va otasining unga bo‘lgan alohida muhabbati sababli akalari yomon ko‘radi. Yusuf tushida akalari va hatto ota-onasi unga ta‘zim qilayotganini ko‘radi. Otasiga aytganda otasini uni ilohiy bayon ekanini anglab, uni sir tutishini xohlaydi. Otasi bu voqeadan so‘ng unga yanada e‘tibor qaratadi va uni akalari otasidan qizg‘onishadi. Akalari hasad qilib uni quduqqa tashlab yuboradi va otasiga uni yovvoyi hayvon yeb qo‘ydi deb yolg‘on gapirishadi. Yusufni quduqdan o‘tkinchilar topib oladi va Misrga quli qilib olib ketishadi.

2. Zulayhoga bog‘liq voqea (Ibtido 39-bob) Yusuf va Zulayho (Po‘tifarning xotini) Yusufni Misrda Po‘tifar (fir‘avnning qo‘mondoni) xarid qiladi va unga xizmat qilishga topshiradi. Potifar Yusufga ishonadi, uni o‘z uyining ustidan qo‘yadi. Yusuf juda chiroyli, aqlli va halol xizmatkor sifatida tasvirlanadi. Po‘tifarning xotini (Tavrotda ismi aniq aytilmaydi) Yusufni o‘ziga jalb qilishga harakat qiladi: "Unga shunday dedi: 'Men bilan bo‘l'" Yusuf rad etadi: "Egam menga uyini ishonib topshirdi. Qanday qilib men bu katta yomonlikni qilib, Xudoga qarshi gunoh qilayin?" Ayol bir necha marta taklif qiladi, har safar Yusuf rad etadi. Bir kuni u hech kim yo‘qligida yana unga tajovuz qiladi. Yusuf qochadi, ayol esa uning kiyimining bir

¹ . Fitrat. Adabiyot qoidalari. 1926 y.

³ . “...Sharqda ‘Yusuf va Zulayho’ obrazlari bilan ko‘plab afsona va rivoyatlar yaratilgan. Bu syujetning yana ham keng yayilishida Tavrot va Qur‘oni karimning ham juda katta ta‘siri bo‘ldi”
“Durbek va uning ‘Yusuf va Zulayho’ dostoni” maqolasidan (2022):



qismini yirtib qoladi. Po'tifarning xotini undan shikoyat qiladi: "Yusuf menga tajovuz qilmoqchi bo'ldi" deb yolg'on ayblaydi. Po'tifar Yusufni qamoqqa tashlaydi. 3. Yusuf qamoqda (Ibtido 40–41-boblar) Yusuf qamoqda ikki fir'avn xizmatkorining tushlarini to'g'ri tabir qiladi. Keyinchalik, fir'avnning ham tushini tabir qilib, yurti ocharchilikdan qutqaradi. Fir'avn uni Misrning eng yuqori lavozimiga tayinlaydi. 4. Yusuf Zulayhoni kechirmaydi (muqoyasa) Tavrotda Yusuf Po'tifarning xotinini kechirmaydi, unga nisbatan hech qanday rahm-shafqat ko'rsatmaydi. Zulayho qamoqdan keyin tilanchilik qiladi, ko'r bo'lib qoladi – degan tafsilotlar yo'q. Bu tafsilotlar Qur'on, hadislar va tasavvufiy dostonlarda keyinchalik paydo bo'lgan (masalan, Jomiyda yoki Sayyid Ahmadda). Tavrotda Yusuf hikoyasi real tarixiy voqea sifatida berilgan, u yerda Zulayho kechirilmaydi va Yusufning sabri, aqlli xulq-atvori ta'kidlanadi. Tavrotdagi Zulayho – shahvoniy ayol, yomon niyatli, Yusufga yolg'on ayb qo'yadi. Tavrotda Zulayho tavba qilmaydi, ko'r bo'lmaydi, Yusufni kechirmaydi. Bu holatlar Qur'on va islomiy dostonlarda ijobiy talqinga ega bo'lib boradi. Tavrotdagi shu kabi ma'lumotlar, ya'ni ismlar hamda voqealarning aksariyati keyinchalik Yusuf haqidagi qissa va dostonlarda o'z ifodasini topgan. Biroq kitobning biron yerida Zulayxo ismi uchramaydi. Unda faqat Po'tifarning xotini obrazi mavjud. Shuni ham aytish joizki, Tavrotdagi mazkur qissaning syujetigina keyingi davrlarda vujudga kelgan "Yusuf va Zulayxo"larga o'tgan. Undagi g'oya esa har bir ijodkorda o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Bunga sabab esa shoirlar qissani yozishda o'zlari yashab turgan makon va zamon nuqtai nazaridan yondashganidir. Shunga ko'ra, bir dostonida dunyoviy ruh, boshqasida esa diniy-axloqiy g'oyalar yetakchilik qiladi.

Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" dostonidagi aksariyat talqinlar majoziy mohiyatga ega. Yusuf va Ya'qub payg'ambarning nafi – jonning moddiy tomonidir. Yusufning birodarlari sa'yi – harakatlari insondagi badaniy quvvatlar – ichki sezgilarning ramzidir. Xotin timsolida esa insonni istak va g'azabga tortadigan hislarning badiiy ifodasi berilgan. Zulayhoning Yusufga intilishi va unga sevgi – muhabbat izhor qilishi insonda istak – xohishning ma'naviy tomonidir. Yusufning xotindan o'zini olib qochishi va uning xohish – irodasiga ko'nmasligi aqlning o'z olamiga ustuvor turishi, hissiyot quli bo'lmasligining ramzidir. Yusufning vazirlik va taxtga o'tirishi, oliy kamolotga erishishi va o'sha kamolotga aql, sabr – toqat sabab bo'lganligini aniq tasvirlaydi. Abdurahmon Jomiyning uchinchi dostoni bo'lmish "Yusuf va Zulayho" 1483-yilda yozilgan bo'lib, sharqda bu dostonning juda ko'p variantlari mavjud. Uni qalamga olgan har bir ijodkor asarga biror o'zgarish va yangilik kiritishga harakat qilgan. Jomiyning ushbu asari adabiyotshunoslar talqinicha, taqdirga tan berishga chaqiruvchi asar bo'lmay, aksincha insonni yuksak tuyg'ular yo'lida har qanday kuchlarga qarshi bosib o'tgan musaffo muhabbat g'alabasini madh etuvchi jo'shqin asardir. Ogahiy tarjimai uchun asos qilib olingan Jomiyning "Yusuf va Zulayho" dostoni fors-tojik va turkiy tillarda bu mavzuda yozilgan asarlarning eng mukammali, ayni zamonda, badiiy jihatidan eng kuchlisi hisoblanadi. "Yusuf va Zulayho" dostonlarida Yusuf obrazining talqini ham turlicha. Durbek va Abdurahmon Jomiy dostonlarida bosh qahramon Zulayhoni go'zal qiz sifatida tasvirlaganlar. Durbek xotin-qizlar latofati va zakovatini yangi jihatlar bilan boyitgan, Zulayho timsolida sadoqatli sevgi sohibasi obrazini yarata olgan. Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" dostonida ishqi ilohiy masalalari yetakchilik qilsa, Durbek⁴ qalamiga mansub "Yusuf va Zulayho" dostonida esa xaloskorlik, sabr-u matonat masalalari e'tiborga olinganligi ko'rinadi. Bundan shu fikr kelib chiqadiki, har bir davr hamda ijodkorning o'z "Yusuf va Zulayho"si bor. "Yusufnoma"lar badiiy adabiyot uchun o'lmas

⁴. "...Durbek o'zi yashagan davr manzaralarini doston ruhiga singdirib yuborgan. Asarda Yusufning insoniy fazilatlar – zehni., zakovati odamlar uchun obro' bo'lishi... Zulayho timsolida sadoqatli sevgi sohibasi obrazini yaratgan"

"Durbek" sahifasidan (Balx variant):



mavzular xazinasidir. U haqida qancha mulohaza yuritilsa, mavzuning shuncha qirralari namoyon bo'laveradi. Yusuf va Zulayho mavzusi insoniyatning o'lmas timsollaridan biridir. Asardagi ishq mavzusi zamirida Allohga bo'lgan ilohiy sevgi birinchi o'rinda turadi. Doston didaktik ko'rinishdagi asar namunasidir.

Andalibning "Yusuf va Zulayho" dostoni bayoni. Andalibda "Yusuf va Zulayho" dostoni bayoni (to'liq tafsilot bilan): 1. Kirish – Hamd, salovot va niyat . Andalib dostonni Allohga hamd, Payg'ambar Muhammadga salovotlar bilan boshlaydi. So'ng fors tilida mashhur bo'lgan rivoyatni turkiy (xalq tili)da yozishga niyat qiladi. Bu doston – nafaqat bir sevgi hikoyasi, balki sabr, poklik va tavba haqida saboqdir. 2. Zulayhoning tush ko'rishi Zulayho – Mag'rib podshohining qizi. Bir kecha tushida quyoshdek porlagan, fazilatli bir yigitni ko'radi. Bu yigit unga quchoq ochib yaqinlashadi. Zulayho uyg'ongach, butun qalbi bilan shu yigitga bog'lanadi va uning ismini bilmasa-da, ko'nglida "Yusuf" degan nido jo bo'ladi. 3. Kahinlarning ta'biri va safar . Tushni ta'bir qilgan donishmandlar aytishadi: bu yigit Misrda yashaydi, ismi Yusuf. U senga nasib bo'ladi. Zulayho otasidan ruxsat olib, karvon tuzadi va uzoq safarga – Misr sari yo'l oladi. 4. Yusufning bolalik va quduq voqeasi. Bu paytda Yusuf Kan'onda yashaydi. Otasi Ya'qub uni qattiq yaxshi ko'radi. Yusuf tushida oy, quyosh va 11 yulduz unga sajda qilganini aytadi. Akalari hasad bilan yonadi va uni quduqqa tashlab yuborishadi. Karvon yo'ldan o'tib, Yusufni topadi va Misrga olib ketadi. 5. Misrda Yusufni sotib olish. Yusuf go'zal va aqlli bo'lgani uchun uni Misr vaziri – Aziz (Potifar) sotib oladi. Yusuf uning uyida xizmat qila boshlaydi. Aynan shu paytda Zulayhoning karvoni Misrga kirib keladi. Aziz Zulayhoni ko'rib, unga uylanadi – bu orada Zulayho aslida Yusuf uchun kelganini ichida yashirib yuradi. 6. Zulayhoning vasvasasi. Zulayho kun sayin Yusufga oshiq bo'ladi. Undan o'zini sevishini, unga yaqin bo'lishini so'raydi. Yusuf bu gunohdan Allohdan qo'rqib tiyiladi. Zulayho unga tajovuz qiladi, Yusuf qochadi – Zulayho esa uning ko'yligidan ushlaydi, ko'ylak yirtiladi. Bu voqea Zulayhoning uyida fosh bo'ladi. 7. Ayollar oldidagi go'zallik sahnasi. Shahar ayollari Zulayhoni ayblaydi: "Bir quldan uyalmay ishq qiladi". Zulayho ularni uyiga chaqiradi, ularga meva va pichoq beradi. Yusuf ularning yonidan o'tganida ular hayratdan o'z barmoqlarini kesib olishadi. "Bu odam emas, malakdir", deyishadi. 8. Yusufning qamoqqa tashlanishi. Zulayho Yusufga yomonlik qilmaydi, lekin fitna tarqamasligi uchun uni zindonga solishadi. Yusuf qamoqda ham sabrli bo'ladi, ikki mahbusning tushlarini to'g'ri tabir qiladi. Keyin esa Misr podshohining tushini (7 semiz va 7 ozg'in sigir, 7 yashil va 7 quruq boshog) to'g'ri talqin qiladi – bu ocharchilik bashoratidir. 9. Yusuf vazir bo'ladi. Fir'avn Yusufga ishonadi, uni davlat xazinasini boshlig'i qiladi. Yusuf yurtini ocharchilikdan saqlaydi, qattiq mehnat qiladi, omborlar to'ldiriladi. 10. Zulayhoning sinovlari. Bu orada Zulayho boylikdan ajralgan, Aziz vafot etgan, Zulayho keksaygan, go'zalligini yo'qotgan va ko'r bo'lib qolgan. Lekin Yusufning sha'ni oshganini eshitib, Allohdan uni bir marta ko'rishni so'raydi. 11. Kan'on – Misr uchrashuvi. Qahatchilik paytida Ya'qub o'g'illarini Misrga galla uchun yuboradi. Yusuf ularni tanib oladi, ammo ular Yusufni tanimaydi. Ben'yamin voqeasi, kosani sumkaga solish orqali sinov o'tkaziladi. Oxirida Yusuf o'zini tanitadi. Aka-ukalar tavba qiladi. Yusuf ularga ko'ylagini beradi – Ya'qub uni hidlab, ko'zi ochiladi. 12. Zulayho bilan uchrashuv va nikoh. Zulayho kambag'al, ko'r holatda Yusuf huzuriga keladi. Yusuf uni tanimaydi, lekin u gapirgach, eslaydi. Zulayho tavba qiladi, Yusuf unga duo qiladi – Zulayho ko'zlari ochiladi va yoshlik go'zalligi qaytadi. Yusuf Zulayhoni nikohiga oladi. 13. Xotima. Yusuf Misrda uzoq yillar adolat bilan hukmronlik qiladi. Otasi Ya'qubni huzuriga olib keladi. Zulayho bilan baxtli hayot kechiradi. Shoir dostonni sabr, poklik, Allohga tavakkal va halollik haqidagi nasihatlar bilan yakunlaydi.

"Yusuf va Zulayho" dostonining turli variantlarini o'rganish — bu faqatgina adabiy tafovutlarni bilish emas, balki madaniy, diniy, ruhiy va falsafiy jarayonlarni chuqur



tushunishga xizmat qiladi. Quyida bu yondashuvning asosiy ilmiy va amaliy foydalari bayon etiladi: Boshqa variantlarni qiyoslab o'rganishning foydalari.

Birinchidan, mazmuniy chuqurlik va ramzlarning boyligi ochiladi. Har bir variantda Yusuf va Zulayho ramzlari turli ma'nolarda ochiladi: Jomiyda – tasavvufiy poklanish, Andalibda – xalqona mehr-muhabbat va tavba, Sayyid Ahmadda – axloqiy ibrat, Tavrotida – tariqiy dramatism. Bu esa talabaning simvolik fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, diniy-falsafiy tafakkur qiyosiy tahlil qilinadi. Qur'on, Tavrot, va dostonlarda Zulayho obrazi qanday o'zgarishini tahlil qilish orqali: Ilohiy muhabbat va nafsiy ishtiyoq o'rtasidagi farq ochiladi, Bu esa tasavvufda "ishqdan najot" g'oyasini anglashga olib keladi.

Uchinchidan, adabiy uslub va poetika tahlil qilinadi. Har bir muallif o'z davrining badiiy estetikasi asosida yozadi: Jomiy – aruzda, falsafiy uslubda, Andalib – nasr-u-nazm aralash xalqona tilda, Sayyid Ahmad – soddaligi bilan didaktik. Bu o'rganish adabiyotshunoslikda uslubiy yondashuvni rivojlantiradi.

To'rtinchidan, zamon va makon bo'yicha obrazlar evolyutsiyasi kuzatiladi. Yusuf – har doim sabr va go'zallik timsoli bo'lsa-da, bir joyda u ilohiy jamol, boshqa variantda esa xalq qahramoni bo'lishi mumkin. Zulayho esa ba'zida gunohkor ayol, ba'zida tavbali valiya sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, o'zbek adabiy merosining uzviyligini anglashga yordam beradi. Bu qiyosiy o'rganish: Sharq dostonchiligi, Islom tafakkuri, Turkiy til poetikasi singari mavzularni uyg'un holatda o'rganishga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" dostonida ishq ilohiy masalalari yetakchilik qilsa, Durbek qalamiga mansub "Yusuf va Zulayho" dostonida esa xaloskorlik, sabr-u matonat masalalari e'tiborga olinganligi ko'rinadi. Bundan shu fikr kelib chiqadiki, har bir davr hamda ijodkorning o'z "Yusuf va Zulayho"si bor. "Yusufnoma"lar badiiy adabiyot uchun o'lmas mavzular xazinasidir. U haqida qancha mulohaza yuritilsa, mavzuning shuncha qirralari namoyon bo'laveradi. Yusuf va Zulayho mavzusi insoniyatning o'lmas timsollaridan biridir. Asardagi ishq mavzusi zahirida Allohga bo'lgan ilohiy sevgi birinchi o'rinda turadi. Doston didaktik ko'rinishdagi asar namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi /N. Shodmonov, G'. Shodmonov/darslik –Qarshi, «Nasaf NMIU» – 2022. 380 bet.
2. Jumayeva D. "Yusuf va Zulayxo" turkumidagi dostonlarning qiyosiy-matniy tadqiqi".filologiya bo.,yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2020.
3. Xasanova, N. (2022). Jomiy "Yusuf va Zulayho" dostoni o'ziga xos jihatlari. Zenodo. <https://zenodo.org/record/7494655>
4. Jumayeva, D. (2021). Yusuf va Zulayxo asaridagi obrazlar tizimi. "Oltin bitiglar" xalqaro ilmiy jurnali <https://journal.buxdu.uz/index.php/journal/article/view/2456>

Vebsayt:

1. Arxiv.uz. (2022). Durbek va uning "Yusuf va Zulayho" dostoni. <https://arxiv.uz/uz/documents/durbek-va-yusuf-zulayho-dostoni>
2. Wikipedia (uz). Yusuf va Zulayho dostoni haqida umumiy ma'lumot. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yusuf_va_Zulayho
3. 3.Vikipediya (uz). Durbek maqolasi. → <https://uz.wikipedia.org/wiki/Durbek>